

O'ZBEKİSTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKİSTAN

LANGUAGE & CULTURE

2024 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2024 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir:	Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinnbosari:	Nodir Jo'raqo'ziyev
Mas'ul kotib:	Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farkhad Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

.Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyor Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Üşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiylar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nodir Jurakuziev

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyoziyeva, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Samixon Ashirboyev, Janat Aymuhambet	
Turkiy til strukturasi mahalliy ziyolilar talqinida.....	6
Munavvara Qurbanova	
Bolalar nutqiga xos illokutiv aktlarning semantik tasnifi.....	18
Gulnoraxon Niyazova	
Detektiv fantastikadagi pragmatik moslashuv.....	32
Afag Gemberova, Gulgun Huseynli	
Tilshunoslikda yangi fundamental tushuncha: “Dunyoning til manzarasi.....	56
Jumanazar O’rozov	
Sud-tergov jarayoni bilan bog’liq yozma matnlarning identifikatsion lingvistik belgilari xususida.....	68
Sanjar Islomov	
Milliy va anglosakson ilmiy kontekstlarida lingvokulturologiya.....	83
Kamaraddin Davletov	
Olamning hissiy-konseptual manzarasi, hissiyotlar va qo’rquv konsepti.....	106
 Adabiyotshunoslik	
Shahlo Hojiyeva	
Sharq-u G’arb ma’rifatchilik adabiyotining uyg‘unligi va o’ziga xosligi.....	120
Oynisa Hojiyeva	
Özbek – Türk Atasözlerinin Karşılaştırmalı Analizi.....	138

CONTENT

Linguistics

Samikhan Ashirbaev, Janat Aymuhambet

Turkish Language Structure in the Interpretation of Local Intellectuals.6

Munavvara Kurbonova

Semantic classification of Illocutionary acts Characteristic of Children's.....18

Gulnorakhon Niyazova

Pragmatic Adaptation in Detective Fiction.....32

Afag Gemberova, Gulgum Huseynli

A new Fundamental Concept in linguistics: "Language Landscape of the World".....56

Jumanazar Urozov

On the identification Marks of Manuscript Texts Relating to the Judicial Process.....68

Sanjar Islomov

Linguoculturology in National and Anglo-Saxon scientific contexts. Comparative analysis.....83

Kamaraddin Davletov

Emotional-conceptual picture of the world, emotions and the Concept of Fear.....106

Literature

Shahlo Hojiyeva

The Harmony and Uniqueness of the Literature of the East-West Enlightenment.....120

Oynisa Hojievа

Comparative Analysis of Uzbek – Turkish Proverbs.....138

ADABIYOTSHUNOSLIK

LITERATURE

Sharq-u G'arb ma'rifatchilik adabiyotining uyg'unligi va o'ziga xosligi

Shahlo Hojiyeva¹**Abstrakt**

Mazkur maqolada Sharq-u G'arb ma'rifatchiligining mushtarak va o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. XVII – XVIII asrlarda G'arbiy Yevropa mamlakatlari va Shimoliy Amerikada keng tarqalgan g'oyavliy-mafkuraviy harakat, bu harakat g'oyalari bilan birlashib ketgan va targ'ib qilingan adabiyot, ya'ni ma'rifatchilik adabiyoti haqida mulohazalar keltirilgan. Yangicha o'zgarishlar natijasi adabiyotga qay yo'sinda ta'sir ko'rsatgani, uning ahamiyati va bugungi kundagi o'rni haqida tahlillar berilgan. Ma'rifatchilik harakatining davomiyligini jadidchilik harakati tashkil qilganligi, jadidchilik harakatining vakillari adabiyot ravnaqi uchun, ijtimoiy tuzum rivoji uchun qilgan xizmatlari e'tirof etilgan va tahlilga tortilgan. Maqolada keltirilgan tahlillar Cho'lponning "Sharq nuri", Lermontovning "Spor" ("Munozara") she'ri, Ulug' nemis shoiri I.Gyote va Xo'ja Hofizning she'riy asarlari asosida olib borilgan. Zero, Gyote Hofiz orqali butun Sharqqa bir umr muhabbat bog'lab, "G'arbu Sharq devoni" ni bitadi. Shuningdek, maqolada XVIII asrda Yevropada quloch yoygan ma'rifatchilik harakati bilan jadidchilik harakatining mushtarak jihatlari tasniflangan. Ma'rifatchilar jamiyatni taraqqiy toptirishga inqilobiy to'ntarishlar, isyonlar bilan emas, ezgulikni,adolatni, ilmni targ'ib qilish yo'li orqali erishmoqchi ekanliklari ma'rifatchilik va jadidichilik adabiyoti namoyondalari asarlari misolida tavsif qilingan.

Kalit so'zlar: madaniy-adabiy muhit, Sharq va G'arb ma'rifatchili, ma'rifatchilik harakati, jadidchilik harakati, demokratik qadriyat, zamonaviy janr.

Kirish

Adabiyotning rivoji ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy muhit bilan chambarchas bog'liq. O'rta Osiyo, jumladan, Movarounnahr-

¹ Hojiyeva Shahlo Hazratovna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.

E-pochta sh.hojiyeva@mail.ru

ORCID ID: 0009-0004-9191-930X

Iqtibos uchun: Hojiyeva, Sh.X. 2024. "Sharq-u G'arb ma'rifatchilik adabiyotining uyg'unligi va o'ziga xosligi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 120 – 137.

ning qulay jo'g'rofiy sharoiti, iqlimi, tabiatи insonlarning uzoq o'tmishda bu yerlarda o'troqlashib, chorvachilik, hunarmandchilik, dehqonchilik bilan shug'ullanganligini, bunday tabiiy sharoitdan foydalanib, yerlarni sug'orib, hosil olganligini ko'rsatadi. Bu esa mintaqada madaniyatning ancha erta, bir necha ming yillar avval rivojlanganligidan dalolatdir. Keyingi o'n yilliklarda arxeologlar tomonidan topilayotgan shahar vayronalari, madaniyat qoldiqlari buning isbotidir. Ipak yo'lining ko'p qismi mamlakatimizdan o'tishi hunarmandchilik, savdo-sotiqlarning erta va keng rivojlanishiga olib keldi. Ota-bobolarimiz ishchan va uddaburon bo'lganidan Vizantiya imperatorlari uzoq vaqtarga qadar o'zlarining diplomatik va moliya ishlariga jalg etganlar.

Quyosh Sharqdan chiqqani kabi aql, ilm-ma'rifat quyoshi ham Sharqda tug'ilib, G'arbga yo'l oldi. Dastlab san'at va madaniyat Markaziy Osiyo, Xitoy, Hindiston, Arabiston, Misr kabi o'lkalarda paydo bo'ldi va asta-sekin G'arbga ham yetib bordi. Yevropaning xolis fikrlovchi mashhur olimlari qadimgi davr antik madaniyatning maydonga kelishida Xorazmda paydo bo'lgan zardushtiylik ta'limotining ahamiyati katta ekanligini yaxshi bilishadi. Rus adibi S.V.Sulginskiy: "G'arb - oqil, Sharq - donishmand, G'arb - kenglik, Sharq - teranlik, G'arb - harakat bilan yashagan, Sharq esa orzu-umid bilan. Xayol, umiddan afsonalar tug'iladi, keyinchalik xalq afsonalaridan falsafiy tizimlar shakllanadi. Xalq afsonalar falsafalarning manbayidir. Agar G'arbning atoqli odamlari faollar bo'lsalar, Sharqda ular faylasuflardir. Olimlar Sharq afsonalarida nafaqat chuqur falsafiy tizimlar, balki, hamma falsafiy omillar, hind-ovrupo mifologiyasining ibtidosini topdilar. G'arbga nisbatan bir necha asrlar avval Sharqda yer yuzidagi hamma jonzotlarning evolyutsiyasi haqidagi ta'limot ishlab chiqilgan edi" [Сулаймонова 1997,399], deb haqiqatni tan oladi.

O'rta asrlar islom fani G'arbga juda yaxshi ta'sir etdi. Bu vaqtida Sharq Ahmad Farg'oniy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, Farobi kabi olimlarni yaratdi va butun dunyoga berdi. G'arb yana Sharqqa ergashdi.

Ma'rifatchilik adabiyoti – mavjud qarashlarga zid holda dunyoga kelib, XVII – XVIII asrlarda G'arbiy Yevropa mamlakatlari va Shimoliy Amerikada keng tarqalgan g'oyaviy-mafkuraviy harakat bu harakat g'oyalari bilan birlashib ketgan va uni targ'ib qilgan adabiyot. G'arbning turli davlatlarida ma'rifatning maydonga kelishi vaqt nuqtayi nazaridan farqlanadi: u avval Angliyada paydo bo'lgan bo'lsa, ijtimoiy shart-sharoitlarning yiriklashishi mobayni-

da qit'aning boshqa mamlakatlariga tarqalgan va bu yerlarda aniq shart-sharoitlar bilan bog'liq holda kechgan. Jumladan, Rossiya-da ma'rifat ancha kech – XVIII asrning ikkinchi yarmida maydonga kelgan; shuningdek, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qator Sharq mamlakatlari, jumladan, turkiy xalqlar hayot kechiruvchi min-taqalar (Qrim, Tatariston, Turkiston, Ozarbayjon)da yoyilgan. Bu yerdagi ma'rifatchilik harakatlari ham Yevropa ma'rifatchilik harakati bilan ko'plab mushtarak jihatlarga egadir. Olimlar ma'rifatni "falsafiy, ijtimoiy, axloqiy konsepsiya", yangicha asosga, dunyoqarashga zamin bo'lgan g'oya deb biladilar. Bu yangi g'oyaning mohiyatini "inson aqlu zakovati olamni o'zgartiradi", degan qarash tashkil qiladi. Ma'rifatchilik harakati burjua demokratiyasi, ijtimoiy taraqqiy, ijtimoiy tenglik vaadolat, shaxs erkinligi kabi fikrlar asosida dunyoga kelgan.

Ma'rifat ijtimoiy ongning galdeg'i rivojiga jiddiy ta'sir qildi, millat hayotining barcha sohalarida, ayniqsa, adabiyot va san'atda tub burilishlar yasadi. G'arbda ma'rifatchilik mafkurasi ta'sirida yangicha estetik tamoyillarga tayangan adabiyot dunyoga keldiki, uning o'zagida "olamni va odamni o'zgartirishga qodir g'oyaviy adabiyot lozim", degan qarash yotadi. Bu esa adabiyotning ham shunga mos holda o'zgarishini talab qildi. Mazkur o'zgarishlar orasida eng asosiysi – idealning "yerga tushgani" dirki, buning oqibatida badiiyat, go'zallik tushunchalariga ham jiddiy tahrirlar kiritildi. Ma'rifatchilik adabiyotda, eng avvalo, farzandlarni tarbiyalash bilan ijtimoiy hayotni isloh qilish vositasini ko'rdi, uni aniq maqsadga yetishish vositalaridan biri deb bildi. Shu sababli ham ma'rifatchilik adabiyoti namunalarida, asosan, qahramonlar orasida ochiq g'oyaviy kurash kechadi, ularning tilidan qat'iy fikrlar aytiladi va himoya qilinadi, qisqasi, g'oya asarning asosiy unsuriga, uni ifodalash muallifning asosiy maqsadiga aylanadi. Ma'rifatchilik adabiyoti maqsadlarini amalga oshirish uchun sharoit tug'diradigan san'at turlari va janrlarga alohida ahamiyat qaradi. XVIII asrda Yevropada quloch yoygan ma'rifatchilik harakatiga jadidchilik harakati o'xshab ketadi. Bu harakatning mushtaraklik jihatlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Yevropa ma'rifatchilik harakatida ham, jadidchilik harakatida ham ijtimoiy-tarixiy sharoit o'ta murakkab edi.
2. Ikkala harakatda ham ma'rifatni yoyish va insonlarni ma'rifatli qilish asosiy maqsad bo'lgan.
3. Ma'rifatchilar nashriyot-matbaa ishlariga ahamiyat bergenlar, kichik hajmli va arzon risolalar chop etib tarqatganlar.

Jadidchilik harakatining ko'zga ko'ringan vakillari: Behbudi, Munavvar qori, Ibrat va boshqalar ham noshirlik bilan shug'ulangan. Bu esa o'zbek milliy matbuotining shakllanishiga sabab bo'ldi.

4. Yevropa ma'rifatchilari qarashlari va ijtimoiy ideali ko'proq kishilarning ongini zabit etdi, natijada yangicha estetik mezonlarga tayangan adabiyot shakllandi. Ya'ni, "inson tabiat va aqlga muvofiq jamiyat qurish" ma'rifatchilik adabiyotining estetik idealiga aylandi, natijada, badiiyat, go'zallik tushunchalariga jiddiy tahrirlar kiritildi.

5. Turkiston jadidchilik harakatining islohotchilik g'oyalari milliy turmushning barcha sohalariga – maorif, madaniyat, din, iqtisodiyot va ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlarga birdek taalluqli edi. Umumiyl masqad – millatni ma'rifatli qilish, yurtni taraqqiy ettirish va o'z-o'zidan ozodlikka erishish.

Yevropa ma'rifatchiligi va jadidchilik harakati haqida so'z borar ekan, ularning uyg'un jihatlari xususida adabiyotshunos Dilmurod Quronov shunday yozadi: "Jadidchilik harakati o'zining ko'p jihatlari bilan XVIII asrda Yevropada keng quloch yoygan ma'rifatchilik harakatiga o'xshab ketadi. Har ikki harakatga xos mushtarak nuqtalarga nazar solinsa, buni yaqqol ko'rish mumkin. Avvalo shuki, har ikki harakat ham feodal asoslar yemirilib, ularning o'rnida kapitalistik munosabatlar qaror topa boshlagan paytda maydonga kelgan. Ya'ni mushtaraklik birinchi galda har ikki harakatning yuzaga chiqishini zaruratga aylantirgan ijtimoiy-tarixiy sharoitlarning o'xshashligi bilan izohlanadi" [Куровов 1997, 6]. Yuqorida fikrlardan anglashiladiki, Sharq va G'arb ma'rifat uchun kurashadi va uning tarqalishi uchun bor imkoniyatlarini ishga solishadi.

G'arb ma'rifati

Ma'rifatchilik XVIII asrda Yevropada hukmronlik qilgan falsafiy oqim edi. Uning markazida aql hokimiyyat va qonuniylikning asosiy manbayi bo'lib, u erkinlik, taraqqiyot, bag'rikenglik, birodarlik, konstitutsiyaviy boshqaruvi, cherkov va davlatni ajratish kabi g'oyalarni himoya qildi. Biroq tarixchilarning ta'kidlashicha, ma'rifatparvarlik g'oyalari dastlab so'zning bugungi ma'nosida universal deb hisoblanmagan. Falsafiy harakat e'tiqod va katolik ta'limotiga emas, balki aqlga asoslangan jamiyatni, yangi fuqarolik tartibini himoya qilgan. Tabiiy qonunga, fan uchun esa tajriba va kuzatishga tayangan. Ma'rifatparvarlik tafakkurining ikkita

alohida yo'nalishi mavjud edi: radikal ma'rifatchilik, demokratiyani, shaxs erkinligini, so'z erkinligini va diniy hokimiyatni yo'q qilishni targ'ib qiluvchi. Ikkinchi, mo'tadil xilma-xillik islohotlar va an'anaviy hokimiyat va e'tiqod tizimlari o'rtasida moslashishni qidirdi. "Yevropa ma'rifatchilik adabiyoti bilan jadid adabiyoti orasida qator o'xshashliklar mavjud. Buning sababi esa har ikki adabiyotni yuzaga keltirgan ijtimoiy-tarixiy omillar, har ikki harakat ko'zlagan maqsadlardagi o'xshashlik bilan izohlanishi mumkin" [Куронов 2004, 12].

Ma'rifatparvarlik demokratik qadriyatlar va institutlarga e'tibor qaratish hamda zamonaviy, liberal demokratik davlatlarni yaratish nuqtayi nazaridan G'arbga siyosiy modernizatsiyani olib keldi. Radikal ma'rifatchilar cherkov va davlatni ajratish tushunchasini ilgari surdilar.

Ma'rifatchilik davri adabiyotidagi novatorlik faqat yangi fikrda emas, yangi shaklda ham namoyon bo'ldi. Ma'rifatchilar mavjud shakllarga yangi ko'rinish, yangi mazmun baxsh etdilar. Drama janri rivoji yangi bosqichga ko'tarildi. Klassisizm drama-sining yuqori (tragediya) va quyi (komediya) janrga qo'yadigan talablaridan chetga chiqildi, drama qahramonlari oddiy kishilar, mavzusi esa zamonaviyligi bilan xarakterlanadi.

Ma'rifatchilik davri adabiyotining asosiy janri – roman vujudga keldi. Ma'rifatchilik romani erkin janr bo'lib, qat'iy talablarga bo'ysunmas, makon va zamonda chegaralanmagan, asosiy tasvir obyekti real voqelik va shaxslar edi. Roman janri, ayniqsa, Angliyada muvaffaqiyat qozondi. J.Sviftning "Gulliverning sayohati", D.Defoning "Robinzon Kruzo" romanlari ushbu janrning imkoniyatlarini namoyish qildi [Сулаймонова 1997, 391].

Yunonistonda Sokrat, Platon, Demokrit, Aristotel singari faylasuflar, Qadimgi Xitoyda Konfutsiy, O'rta Osiyoda Kaykovus, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi allomalar fanning ulkan ahamiyatini e'tirof etib, keng targ'ib qilganlar. Ular asos solgan nazariyalar tom ma'nodagi ma'rifatning g'oyalari edi. Ma'rifat G'arbda ham, Sharqda ham bir necha umumiy jihatlarga ega bo'lib, diniy xurofotlarga qarshi bo'lgan va turlicha davom etgan. G'arb ma'rifatchiligining Golbax, Didro, Gelvetsi, Mabli, Morelli, Volter, Monteskye, Kondilyak, Lametri, Kondorse va boshqa vakillari diniy aqidaparastlikni tanqid qilish bilan chegaralanmay, umuman dingga qarshi kurash e'lon qildilar. Dahriylik G'arb ma'rifatchiligining asosiy belgilaridan biriga aylandi.

Sharq ma'rifati

Sharq ma'rifatchiligi dinga qarshilik qilmadi, balki diniy aqidaparastlikka qarshi chiqdi. Sharqdagi ma'rifatchilik g'oyalarining yetuk namoyandalari Ismoilbek Gasprinskiy, Fitrat, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Zakiy Validiy, Mahmudxo'ja Behbudiy, bu g'oyalarni o'z asarlarida targ'ib qiluvchi Cho'lpon, Fitrat kabilar diniy xurofotlarga keskin kurash olib bordilar, ammo bu kurash dahriylik sabab emas, mo'tadil dindorlik mavqeyida olib borildi. Ularning asosiy qismi dindor, ba'zilari esa (M. Behbudiy) diniy ulamo edi. G'arb ma'rifatchiligi zamindorlar va monarxiyaga qarama-qarshi holda kurash yo'lini tanladi. 1789-yil Buyuk fransuz inqilobi yuzasidan vujudga kelgan sabablar orasida ma'rifat muhim rol o'ynaydi. Sharq, xususan, Markaziy Osiyo ma'rifatchilar keskin siyosiy talablarni qo'yishmadni. Ular jamiyatni xat-savodli etish orqaliadolatli, tizimli va farovon hayotga erishmoqchi bo'ldilar. G'arbda ma'rifatchilar ko'proq tabiiy fanlarni rivojlantirishga harakat qildi. Chunki g'arblik ma'rifatchilarning asosiy qismi ayni damda tabiatshunos olim bo'lib, ularning aksariyati tabiatshunoslik sohasining taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan. Sharqda esa faqat tabiiy fanlarga emas, umuman olganda, ilm-fanga, mustaqil sog'lom fikrga, mazmun-mohiyat va mantiqqa murojaat qilishdi. Ular xalqni hurlikka, osoyishtalikka chiqarishning ilk yo'li – xalqni savodli etish, ortiqcha sarf-xarajatlar sarf etiladigan marosimlarga qarshi kurashda deb o'ylashdi. Shu bilan birga, ular diniy aqidaparastlikka qarshi kurashda faqat dunyoviy fanlardan emas, Qur'on oyatlari va payg'ambar hadislaridan ham foydalanishdi, chunki ularning ko'pchiligi muayyan diniy bilimlarni ham puxta egallagan edi. Shu o'rinda akademik Naim Karimovning quyidagi fikrlarini keltirishni o'rinli deb bildik: "XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Turkistonga yetib kelgan taraqqiyparvar gazetalar M.Behbudiy, M.Abdurashidov, A.Avloniy, Hamza, Fitrat, Cho'lpon kabi yoshlarni dunyoning boshqa mamlakatlarida yashovchi xalqlar hayoti bilan, yangi tug'ilgan asrning ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan tanishtira boshladi. Xuddi shu yillarda Rossiya, Turkiya, va Eronda sodir bo'lgan inqilobiy voqealar haqidagi xabar ham shu nashrlar orqali Turkistonga yetib keldi" [Каримов 2008, 11].

Yangi davrda Turkistonda ma'rifatparvarlik g'oyalarining tarqalishi Gulxaniy, Ahmad Donish, Ogahiy, Nodira, Uvaysiy, Muqimiyy, Furqat, Anbar otin kabi ijodkorlar nomi bilan bog'liq. Jumladan, keyingi uch ijodkor Chor Rossiyasining mustamlakasi kuchaygan

og'ir zamonda ma'rifatparvarlikni hayotiy a'moli deb bildi. Holbuki, "...chor hukumatining birinchi xavfi millatparvar ziyolilardan edi. Furqat ana shunday murakkab va ziddiyatli davrda yashab ijod qildi. O'z asarlari orqali ilmning, ma'rifatning beqiyos ahamiyatini alohida ta'kidladi, ilm-u ma'rifatga millatni muqarrar tanazzuldan qutqaruvchi yagona vosita deb qaradi" [Jabborov 2004, 30].

XX asr boshlarida jadidchilik harakati keng quloch yoydi. Bu harakatning ilg'or vakillari sanalgan Behbudiy, Avloniy, Tavallo, Sidqiy Xondayliqiy, So'fizoda, Fitrat, Hamza, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon singari yozuvchi va shoirlar xalqning ijtimoiy ongini ma'rifat asosida tarbiyalash uchun fidoyilik ko'rsatdilar. Jadidlarning olib borgan barcha ishlari – matbuotning yo'lga qo'yilishi, "Usuli jadid" maktabi nazariyasi va amaliyoti, teatrchilik – hamma-hammasi ma'rifatchilikka xizmat qildi.

G'arb ma'rifatchilari cherkov tomonidan ta'qib va tazyiq ostiga olindi. Biroq XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida Yevropada demokratik muassasalar tarkib topa boshlagani, so'z erkinligi va vijdon erkinligi tamoyillariga amal qila boshlagani sababli cherkov ularga o'zları o'ylagandek qattiq zarba bera olmadı.

Markaziy Osiyoda XIX asr oxirgi choragida endigina rivoj-lanayotgan ma'rifatchilik harakati vakillari ko'plab qurban berdilari. XX asr boshida jadidlar harakati ikkiga bo'linib, xurofotchilar o'zib keta boshlagach, ma'rifatchilar ko'p zarar ko'ra boshladilar. Ularning asosiy qismi ta'qib va surgun qilindi. 1918 -1919-yillarda xurofotchi ulamolarning fatvosi bilan minglab ma'rifatchilar va ularning tomonidagi kishilar yo'q qilindi. Qizil imperiya davri tarix va falsafa fanida ma'rifatchilarni respublika vakillari deb atadilar. Zero, ma'rifatchilar jamiyatni taraqqiy toptirishga inqilobiy to'ntarishlar, isyonlar bilan emas, ezgulikni,adolatni, ilmni targ'ib qilish yo'li orqali erishmoqchi edilar. Sho'rolar davlati siyosiy amaliyotida esa ularga xalq dushmanlari tamg'asini yopishtirdi, ular jazolandı, qatl qilindi.

Sharq adabiyotida ma'rifatchilik deb nom olgan bu jarayon nazariy-estetik jihatdan dadil qo'yilgan qadam edi, badiiy nasrda yangi janrlar – tarbiyalovchi roman, maishiy roman, falsafiy qissa, hajviy epos kabilarni paydo qildi, inson ruhiyati tahlilining yangi usullarini kashf qildi.

Turkistonda ma'rifatchilik adabiyotining paydo bo'lishida tarixiy sharoit bilan birgalikda, XIX asrning oxirgi choragida dunyoga kelgan ma'rifatchilik, ma'rifatparvarlik g'oyalarining ta'siri katta bo'ldi. XIX asr oxiri va XX asr avvalidagi Turkistonning ijtimoiy-si-

yosiy va madaniy-ma'naviy hayotiga e'tibor qaratsak, marifatparvarlik g'oyasi demokratik va milliy-vatanparvarlik harakatlarining g'oyaviy mazmunini paydo qilganini ko'ramiz. Yurtimizda ma'rifatparvarlik g'oyasining kelib chiqishining muhim sababi, avvalo, rus istilochilik siyosatining keskinlashib borishi sababli paydo bo'lgan milliy hurlik harakatlari, ikkinchidan, G'arbdan kirib kelayotgan demokratik harakatlarning mustamlakachilar tomonidan bo'g'ib qo'yilishi, uchinchidan, millatparvar – fidoiy kishilarning siquvga olinishi va hatto ularning qatl etila boshlaganligi edi. Bu haqda turk olimi Husayn O'zboy shunday yozadi: "Yozilgan yillarda qo'ldan-qo'lga o'tib o'qilgan, mashhur bo'lgan "Go'zal Farg'ona", "Go'zal Turkiston", "Buzilgan o'lkaga", "Yong'in", "Qo'zg'olish", "Bas endi", "To'fon" kabi bari 1920-yildan keyin bitilgan she'rlarni e'tiborga olmasdan Cho'lpon haqida hukm chiqarmoq mumkin emas. Cho'lpon she'rlaridagi g'arb va sharq iboralari, masalan, g'arb-imperializmni va aynan Rusiya bosqinchilarini, jumladan, bo'lsheviklarni ham bildirmoqda; sharq esa, mahkum, mazlum millatlarni, Turkistonne anglatmoqda; baynalminal kurash, ishchi sinfi kabi iboralar ham zolimlarga qarshi kurashuvchilarning timsolidir" [Хусайн 1993, 63]. Turk olimining ushbu fikrlaridan anglashiladiki, Cho'lpon ijodi misolida butun jadidchilik harakati vakillarining ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surganligining guvohi bo'lamiz.

Jadidchilik harakati namoyandalari o'zlarining ma'rifatparvarlik g'oyasiga bir tarafdan o'sha davr uchun muhim bo'lgan demokratik g'oyalarni: savodli bo'lism, ilm o'rganish, fan va texnika yutuqlarini o'rganish, ilmiy-tabiyy fanlarni taraqqiy ettirish, so'z va fikr erkinligini joriy etish, mustaqil davlat barpo etishga asoslangan milliy davlatchilikni paydo qilish, milliy g'oyalar qatlamini shakllantirish, adabiyot va san'atning zamonaviy janrlarini taraqqiy ettirish, ikkinchi tarafdan mustamlakachilik siyosati tazyiqi ostida o'z milliy qiyofasidan ayrılayotgan turkiy til va milliy urf-odatlarini tiklash, milliy ma'naviy-axloqiy taraqqiyotni yanada kuchaytirish, milliy o'zligini bilish, milliy ong, milliy tafakkurni va diniy e'tiqodlarni taraqqiy ettirish kabi g'oyalarni muhim vazifa qilib oladilar. Albatta, bu maqsad va vazifalarni bajarishda an'anaviy islom dini, shariat qonunlari va hadislar ham o'z ta'sir kuchini saqlab turgan ta'limotga suyanadilar. O'rta Osiyoda jadidlar harakati to'g'risida olim Naim Karimov shunday fikrlarni bayon qiladi: "O'rta Osiyoda jadidchilik harakati uyg'ongan yillar edi. Ana shunday tarixiy-ijtimoiy davr taqozosi bilan harakatga kelgan jadidchilik xalq hayotida kechayotgan qashshoqlanish jarayonining oldini

olish hamda jaholat va safohat botqog'ida yashayotgan xalqqa madad qo'lini cho'zishni o'ziga maqsad qilib oldi. Jadidlar xalqni har tomonlama ayanchli ahvoldan xalos etishning birdan-bir yo'lini ilm-ma'rifatda ko'rdilar" [Каримов 2008, 21].

XX asr boshlari o'zbek adabiyotida, ayniqsa, she'riyat va nasrda g'oyaviy-ma'naviy, badiiy-uslubiy o'zgarishlar, yangilanishlar kuzatildi. O'zbek romani va dramaturgiyasining vujudga kelishi, o'zbek matbuotining paydo bo'lishi va rivojlanishi ham shu davrga to'g'ri keladi. Turkistonda jadidchilik g'oyalarining keng tarqalishi natijasida jamiyat hayotining barcha jabhalarida o'zgarishlar ro'y berdi. Ayniqsa, adabiyotda mavzu va g'oya, shakl va uslub yangicha poetik xususiyatlar oqimida rivojlandi. Umrini o'zbek adabiyotini o'rganishga bag'ishlagan amerikalik olim Edvort Olvort bu davr adabiyotiga shunday baho bergen edi: "XX asr boshlarida hayotdagi tub o'zgarishlarga monand holda o'zbek adabiyoti va san'atiga yangi janrlar muvaffaqiyatli ravishda kirib kela boshladi. Hayot va jamiyatda mavjud bo'lган muammolar haqida chuqur o'ylaydigan, fikr yuritadigan yozuvchilar oldida mislsiz keng imkoniyatlar ochildi. Tashqi adabiy ta'sirlar mumtoz adabiy an'analarga tayanib kelgan mualliflar oldiga xarakter, shakl, uslub va tomoshabin (kitobxon)ga munosabat borasida yangi vazifalarni qo'ya boshladi. Iste'dodli ijodkorlarning samarali izlanishlarida novatorlik kurtaklari yuz ko'rsatdi. XX asr boshlarida Markaziy Osiyodagi turkiy adabiyot aruz vazniga tayangan bo'lsa, asr so'ngida jahon adabiyotiga xos bo'lган yuksak adabiy shakllar, uslublar yangi o'zbek adabiyotida ham tamoman o'ziga xos milliy qiyofada ustuvor o'rin tutmoqda" [Олворт 2009, 8].

Olimning yuqoridagi fikrlarini qo'llab aytish mumkinki, bu davrda jadidchilikning ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning ijodiy faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Yangi shoir va yozuvchi Cho'lponning asarlari yigirmanchi asr boshlari o'zbek adabiyotiga yangicha ohang, ruh va uslub olib kirdi. Uning ijodini o'rganish orqali biz o'zbek adabiyoti taraqqiyotini anglaymiz. Cho'lpon o'zbek adabiyotining jahon adabiyoti maydonida o'z o'rnnini egallashini, jahon adabiyotiga sig'adigan asarlar yozishini istagan ijodkor edi. Bu yo'lda u jahon adabiyoti an'analariga amal qildi, ijodida yangi mazmun va shaklni sinovdan o'tkazdi. Shuningdek, jahon shoir va yozuvchilari asarlarini tarjima qilib, o'zbek xalqini mumtoz adabiyot bilan tanishtirdi. Bizning ushbu fikrlarimizni mashhur turk olimi Husayn O'zboy o'z tadqiqotlarida shunday ta'kidlaydi: "Toza o'zbek tilida

yozishi (Cho'lpon haqida gap ketyapdi – ta'kid bizniki Sh.X), asosan barmoq vaznini qo'llashi, xalq ruhini go'zal uslubda ifodalashi, vatanparvarligi, tuyg'u-tushunchalarini harakatli, shiddatli aks ettirishi, shaxsiyat e'tibori bilan Cho'lpon ko'proq yangilikchi "Milliy adabiyot" ijodklorlarimizni eslatadi. Xotin-qizlar huquqini himoya qilishi, g'arb hokimiyatiga qarshi tiranishi, qoloqlikni nafratla fosh etishi, Sharq ruhini tiriltirmoq istagani va yoshlik idealizmi Cho'lponni Tavfiq Fikratga, Mehmet Oqif Erso'yga yaqinlashtirgan xususiyatlardir. Otashin hurriyat she'rlari esa uni Nomiq Kamolga o'xshagan fazilatidir. Bu tasodifyi o'xshashliklar emas, albatta. Chunki Cho'lpon yoshlidan turk tarixi va adabiyotini chuqur o'rgangan, "Sarvati funun" va "Turk yurti" jurnallarini o'qiganini ham bilamiz" [Хусайн 1993, 67]. Olimning ushbu fikrlari bizning yuqorida, tahlillarimizni to'ldiradi desak, yanglashmagan bo'lamiz. Cho'lpon o'z davrining yangi shoiri edi.

XIX asrda Yevropada maxsus qiyosiy adabiyotshunoslik maktablari paydo bo'la boshladi. Biroq jahon adabiyoti tarixini yaratishga azm qilgan Paul Van Tigem, Georg Brandes, Pol Azar kabi olimlar faqat G'arbiy Yevropa madaniyatini tan oldilar. Boshqa xalqlarning ma'naviy boyliklari ularning nazaridan chetda qoldi. Bir necha asrlar oldin butun dunyoga yoyilgan Sharq madaniyati umumiyligi doiradan olib tashlandi. Sharq davlatlarini qoloq, mustamlaka mamlakatlar, ularning bashariyat rivojida ulushi yo'q dedilar. Ammo bu bir yoqlama aytilgan, o'zini oqlamaydigan qarash edi. Fitratning quyidagi so'zlari ham fikrimizni isbotlaydi: "Ovro'pa dunyosi vahshat va bilmaslik cho'llarinda obdirab, shovqin-toshqin yurar ekan, Sharq dunyosi butun insoniyat olamini saodat va tinchlik o'chog'larig'a erishdurmak uchun ish ko'rub turar edi. Ovro'pada bir mahalla oqsoqollig'i yo'q ekan, Sharqning "ko'zquchunos", Barahma, Iso, Zardusht va Muhammadlari butun Odam o'g'ullarini to'g'ri va bilguli yo'lg'a kirguzmak uchun tirishar edilar. Chinlilar yozish uchun qog'oz yasaganida ovro'palilar o'ng-so'l qo'llarini bir-birindan ayira olmas edilar" [Фитрат 2003, 213].

Fitrat Yevropaning taraqqiyotda bizdan o'zib ketgani rost ekanini e'tirof etadi. Biroq Sharqqa madaniyat berishi yolg'on ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tarixda yuksak taraqqiyotga erishgan Sharq butun bashariyatning rivojlanishi uchun jiddu jahd qilgan bo'lsa, G'arbning madaniyat tarqatish da'vosi zamirida kuchsizlarni talash, o'zgalarning boyligiga ega chiqish, o'z manfaati yo'lida boshqalarini mahv etish maqsadlari yotadi. Fitratning bu kabi g'oyalarini professor Nurboy Jabborov quyidagicha ta'riflaydi: "...

buyuk ma'rifatparvar Abdurauf Fitratning ijodiy-ilmiy ishlari ham, amaliy faoliyati ham mustahkam taraqqiyot ildizlariga ega bo'lsada, sharoit taqozosi bilan tanazzulga yuz tutgan, natijada G'arbdan ortda qolishga mahkum etilgan qadim Sharq madaniyatini yangi zamon sharoitida yanada yuksak darajaga ko'tarish, bu orqali Vatan va millat taraqqiysini ta'minlash maqsadlariga xizmat qildi. Ulug' mutafakkirning bu boradagi qizg'in faoliyatini yanada kengroq miqyoslarda o'rganish, zarur saboqlar olish bugungi davr uchun ham beqiyos ahamiyatga ega" [Jabborov 2023, 133].

Ammo Yevropa ilm ahlining barchasi ham Sharqqa nisbatan bunday munosabatda bo'lindi. Sharq adiblari asarlari g'arbliklar qalbidan mustahkam o'rin oldi. Yevropa adiblari sharqliklar ijodiga taqlid qildilar, ulardan ilhomlandilar. Ulug' nemis shoiri I.Gyote Xo'ja Hofiz devonini Fon Hammer tarjimasida mutolaa etib, azbaroyi ta'sirlanganidan o'zini Sheroz bulbulining muridi deb e'lon qildi. U Hofiz orqali butun Sharqqa bir umr muhabbat bog'lab, "G'arb-u Sharq devoni"ni bitadi.

*Buzildi G'arb, Janub va Shimol
Taxtu tojlar bo'ldi paymol.
Sen sharqqa, kun chiqarga bor,
Unda qo'shiq, sevgi bor, may bor.
U tabarruk havoni shimir
Va boshlagin yangidan umr* [Каримов 2010, 6].

(“Hijron” she'ri Sadreddin Salimov tarjimas)

Ovro'pada dunyoviy mazmundagi adabiyot, avvalo, Ispaniyada, birinchi arab tilida, so'ng mulamma (shiru shakar) da shakllanadi. Qadimiylar manbayi bo'lgan O'rta Osiyoning qulay geografik joylashishi Sharq bilan G'arb, Mesopotamiya, Eron, Misr, keyinchalik Yunoniston va Rimni Xitoy va Hindiston bilan bog'lovchi, turli xalqlar madaniyatining aralashuvini ta'minlovchi xalqa rolini bajardi. O'rta Osiyoga xos bo'lgan yuqoridagi xususiyat bu vaqtida ko'plab xalqlar e'tiborini o'ziga tortdi va qayta-qayta egallanishiga sabab bo'ldi. Bular iqtisodiy qoloqlik, madaniy orqada qolishga olib keldi. Bu haqida Lermontov "Spor" [Лермонтов 1981, 79]. Ya'ni "Munozara" she'rida shunday deydi.

Chol Elburuz egildi,
Qozbekka bir tikildi.
Va dediki, "Ey, o'rtoq,
Bu tomong'a ham bir boq,
Kishilarni ko'rdingmi,

Niyatini so'rdingmi?
Ular senga mindilar,
Uy-joy yasab, tindilar.
Ko'p hiylakordir odam,
Ayniqsa, sharq sirli odam!"

Kazbek:

"Hech qo'rquv yo'q sharqdan,
Chunki to'qqiz yuz yildan
Beri endi yotadir.
Sen bir qara bu yoqg'a,
Boshdan-bosh ufqg'a:
Ajdodning sukunatli,
Zamonlarin yod etib,
Yulduz sanab yotadi,
Rohat qadrini bilib;
Meni yenga olmaydir,
Qari sharq bitgandir".

Asarda Elbrusning Kazbekka "Odamlar ustingga chiqmasin, uy qurib, xumdonlarni tutatmasin, oltin deb seni kovlab ko'ksingga xanjar urmasin. Ayniqsa, Sharqning sirli odamlari" deganida, Kazbek tog'i tilidan Sharq davlatlarining oldingidek taraqqiyparvar, dunyo maydonida faol emasligi, ajdodlarining qudratini yod etib yulduz sanab yotishi, taraqqiyotdan orqada qolganligi, olg'a intilish o'rniga vaqtini sarxushlik, mastlik bilan o'tkazayotgani, bundan hatto ehrom toshlari qazib olingen qudratli Nil daryosi ham qayg'uda ekanligi, tinchlik va farovonlik, yangilik va taraqqiyot uchun hech kim kurashmayotgani, sharq keksayib qolgani o'zgacha qayg'uli ehtiros bilan yoritiladi.

Ushbu muammolar Sharqning o'zida ham nazardan chetda qolmaydi, albatta. XX asrga kelib Sharqu G'arb muammosi keskin ma'naviy va ijtimoiy-tarixiy qarashlar maydoniga aylangan edi. Sharq mamlakatlarining G'arb imperialistlari tomonidan bosib olinishi ularning ijtimoiy-tarixiy va madaniy taraqqiyotidagi sustkashlikni jadallashtirib yubordi. Bu ishlarga qarshi ilg'or ziyolilarning, ma'rifatparvar insonlarning Sharq ozodligi va hurligi yo'lidagi harakatlari, faoliyatları kuchaya boshlagan davr edi. Shuning uchun falsafiy ijodiyotda ham siyosiy mavzudagi masalalar ko'proq ko'tarildi, Sharq va G'arb mamlakatlarida istiqomat xalqlarning turmush tarzi qiyoslab solishtirila boshlandi va bunday tafovutlar sababini aniqlash tamoyili kuchaydi.

Cho'lpon mashhur tatar inqilobchilaridan biri, islomni kom-

munizm g'oyalari bilan kelishtirishga intilgan Mullanur Vohidovning o'limi munosabati bilan 1918-yilda yozgan "Sharq nuri" [Чўлпон 1991, 378] she'rida Sharqning qaysi burchagiga qarasang, yo'qlik, o'lim, zulm, qarg'ish ko'rinishi, bir vaqtlar, Sharq ulug' moziy va madaniyatlar maskani bo'lgan Sharq bugun chetlar (ruslar) qo'lida ko'zi yoshli ekanligini kyunib tasvirlaydi. Sharqning Misr ehromlari va Nil daryosi, fallohhlar to'yi, Suriya Shomi-yu, Himolay tog'i, hind qizi, Nishopur bog'lari, Xayyom g'azallari, Konfutsiy falsafasi, Zardo'sht ta'limoti, Bedil kalomlarisiz tasavvur etib bo'lmasligini aytadi. "Sharq" deganda mutafakkir buyuk ma'naviyat sultanatini va bu madaniyatni barpo etgan shaxslar, davrlarni tilga oladi. Biroq uning yuragini tilka-pora qilgan bir muammo respublika. Bir zamonlar yer yuzinda o'z boshli Ulug', shonli, madaniyat tug'dirg'on u go'zal Sharq, shirin tuproq so'ng zamon bo'ldi chetlar panjasida ko'z yoshli... ("Sharq nuri"). Mutafakkirni iztirobga solgan asosiy masala – bu ko'hna va navqiron, madaniyati va ma'naviyati yuksak, serhosil tuproqli Sharqning "chetlar panjasida ko'z yoshli..." bo'lib qolganligi, "G'arb" deb atalgan umumiy dushman tomonidan bosib olinib, oyoq osti qilingani tasvirlanadi. Cho'lponning 1920-yilda yozilgan "Qizil Baynalminal" [Чўлпон 2016, 6] she'rida esa Sharqning ozodlikka erishish va istiqboli masalasi ko'tariladi. Cho'lpon Sharq va G'arb obrazini nihoyatda ta'sirchan chizib beradi. "Sharqning havosi anchadan buyon buzilgan, uni "oppoq qo'llar" buzgan. Sharq ellari yot ellardan kelgan, o'zlarini madaniyat yaratuvchilar deb bilgan bir hovuch odamlar qo'lida ezilmoqda. Sharq kishisining qattiq esa-da noni yo'q, non topolsa choyi yo'q, bir hovuchlar boyligini qo'yishga joy topmas. Shu tariqa Sharqda bir oila ichida olti-yetti kishi ochidan o'lmoqda; G'arbda ahvol o'zgacha. Bazmgohlar, bog'chalar, semizlikdan yuzi qizil odamlarga to'lib ketgan. Kimning puli bo'lsa u ulug' va hurmat egasi... ammo isroflarning oxiri yo'q, restoran va bog'chalarda buzuqlik, tubanlik va ifloslik" [Чўлпон 1919, 5].

Sharq hayotiga baho berish Lermontov ijodida umumiy bo'lsa, Cho'lpon ijodida esa bu masala xususiyashadi. Markaziy Osiyodagi muammolar qalamga olinadi.

O'rta asrlarda Ovrupo va Yaqin Sharqqa o'z ta'sirini o'tkazgan Movarounnahr jo'g'rofiy jihatdan oraliqda, asosiy qit'alar aro dengiz yo'llaridan uzoqda, umuminsoniy aloqalar taraqqiyotidan chetda qoldi. O'z qobig'iga o'ralib, boshqa xalqlardan uzilib qolgan mintaqamiz xalqlari ilm-fan, ayniqsa, amaliyot ilmidan orqada qoldi va keyinchalik nisbatan osonlik bilan Rossiya tomonidan bosib olindi. Ammo bu orqada qolish umuman madaniyatsizlikka olib

kelmadi. Agar G'arbiy Ovrupo fan va texnika rivojining oliy darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, Sharq mamlakatlari xalqlari inson qalbini, ruhiy hayot qonuniyatlarini o'rganishda yuqori darajaga ko'tarildilar.

Turkiston ma'rifatchiligining birinchi bosqichlarida axloqiy fikrlar, asosan, badiiy va didaktik holda o'z aksini topdi. Shuning uchun o'zbek va tojik xalqlarining yetuk arbobi Ahmad Donishning (1827-1897) "Navodir ul-vaqoye" asari tahsinga sazovor. Ahmad Donish o'z asarlarida Buxoro amirligi davlat tuzumini Rossiya davlat tuzumi bilan qiyoslab, uni qayta isloh etish kerakligini aytadi. Ayni vaqtida, an'anaviy axloqiy g'oyalalar bilan fikr yuritar ekan, uadolatni ham podsho - hukmdor shaxsiga, ham davlat tizimiga xos fazilat sifatida olib qaraydi. Zero hukmdoradolatli siyosat olib borsa, mamlakat hayotining hamma yo'nalishi uchun adolatni mezon qilib olsa, san'atning taraqqiyotiga sharoit yaratса - xalq turmushi farovon bo'ladi, yaxshi fazilatlar kuchayib, yomon illatlar zaiflashadi. U, hukmdor donishmandlik fazilatiga ega bo'lishi shart, davlatning mazmun-mohiyatini aql belgilaydi, degan fikrga keladi: oqilona boshqarilgan mamlakat odamlarigina ma'rifatli va yuksak axloq egalari bo'la oladi.

"Sharq" va "G'arb" ko'p jihatdan qarama-qarshi turlicha madaniy an'analar, ikki xil ma'naviyat, dunyoqarash va dunyonи tushunishning ikki xil tizimiga ega. Sharq va G'arb o'rtasidagi farq xalqlarning turmush tarzi, psixologiyasi, axloqiy tamoyillari va qadriyat yo'nalishlarida o'z aksini topadi. Volterning "Brut" [Болтеп 1783, 122] fojiasida XVIII asr fransuz hokimi mutlaq sharoitida mustaqillik, yurtga sadoqat, vatan xoinlariga qarshi murosasizlik g'oyalari olg'a suriladi. Tragediya syujeti Rim tarixidan olingan. Brut Rim davlatining yetuk arbobi. U o'z hayotini ona yurtining ozodligi uchun kurashga baxshida etadi. Rim askarlari Brut rahbarligida kurashga borib, zolim shoh Tarkviniyni taxtdan ag'daradi. Rim respublika deb e'lon qilinadi. Lekin Tarkviniy o'z odamlari bilan respublika tahdid qilaveradi. Respublikachilar bilan shoh askarlari o'rtasida ayovsiz jang boshlanadi. Brutning o'g'li yosh Tit otasi boshchiligidan ajoyib qahramonlik qiladi. Tit yosh bo'lishiga qaramay, dushmaniga qarshi jangda o'z nomini shon-shavkat va jasorat bilan yuksaltiradi. Lekin Tit beqaror inson, buning ustiga Rimdan haydalgan Tarkviniyning qizi Tulliyaga oshiq bo'lgan. Bundan xabar topgan dushmanlar Titni sotqinlik qilishga undaydilar. Tit bu xiyonatkorona takliflarni jahl ila rad etadi. So'ngra dushmanlar bu ishga Tulliyaning o'zini ham aralashtiradilar. Tulliya Tit bilan uchrashib, garchi uning sevgisiga etishmoqchi bo'lsa, Tit shoh Tarkviniy tarafiga o'tishi,

o‘z yurti Rimga, otasi Brutga xiyonat qilishi lozimligini aytadi. Aks holda ,Tit Tulliyaning muhabbatidan umid qilmasin deydi.

Albatta, Tit vataniga xiyonat qilishni istamaydi, lekin sevgilisi Tulliyadan ajralish fikri uning butun vujudini qiyinaydi. U o‘zining irodasizligi sababli ixtiyorini boy beradi va dushman tomonga o‘tadi. Tez fursatda bu fitna oshkor bo‘lib, Tit respublikachilar tomonidan qo‘lga olinadi. Rim respublikasining senati Brutning mamlakat oldidagi xizmatlarini hisobga olib, Titga jazo bermasdan, uni otasi qo‘liga topshiradi. Millatsevar ota o‘g’lining xoinligidan qattiq nafratlangan, xafa bo‘lgan edi. Shuning uchun uning o‘zi o‘g’lini oliy jazoga-o‘limga mahkum etadi. Senat a’zolari butun umrini Rimning hurligi yo‘lida sarflagan, mana endi shu yo‘lda o‘zining eng aziz farzandini ham o‘limga hukm qilayotgan otaga chin dildan achinadilar. Brut ularga javoban, Rimning ozodligi, respublikaning daxlsizligi har narsadan ustun turishini aytadi.

Fojiada Brutning shaxsiy ichki hissiyotlari bilan insoniy burchi, vazifalari o‘rtasidagi ziddiyat masalasi hal qilinadi. Brut har doim o‘g’lidan ona yurti Rimni sevishni talab qilar edi. Volterning “Brut” tragediyasi qaynoq vatanparvarlik qasidasi, respublika dushmanlariga shafqatsiz, murosasiz qahr-g‘azab ifodasi bo‘lib jarangladi.

Rossiyaning ilg‘or ziyolilari Pushkin va Gersenlar hamma vaqt fransuz ma’rifatparvarlariga hurmat bilan qaradilar. V.G.Belinskiy Volterni “XVIII asr dahosi”, “Fransiyaning milliy shoiri” deb atadi va Pushkin ijodiga shunday baho berdi: “Uning asarlari haqida beba ho deb aytish kifoya qiladi. U o‘z orqasidan butun adabiyotimizni, yuzaga chiqqan hamma talantlarni ergashtirib olib bordi, u paydo bo‘lgandan boshlab elegiya-qo‘sinq lirik poeziyaning yagona turi bo‘lib qoldi. [Белинский 1948, 94].. Olimning fikrlariga e’tibor qaratilsa, XX asrning boshida ijod qilgan Cho‘lpon ham, uning ijodiga ergashib, asarlaridan tarjimalar qildi, uning ijodga havas bilan qaradiki, natijada yangi o‘zbek she’riyatining shakl, mazmunini yangilashga muvaffaq bo‘ldi. Ushbu fikrni adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov quyidagicha tasdiqlaydi: “XX asr o‘zbek she’riyatida davr shiddatiga mos ohanglar, isyonkor fikr va tuyg‘ular ifodasiga muvofiq shakllar zarur edi. Yangi she’riyatni yaratish yo‘lida asrimiz boshida maydonga kirgan ko‘plab ijodkorlarimiz izlandilar. Shu izlanishlarning eng yaxshi jihatlari Abdulhamid Cho‘lpon she’riyatida o‘zining mujassam ifodasini topdi. Shu bois ham biz Cho‘lponni haqli ravishda novator shoir deb ataymiz” [Қуронов 2004, 88].

Sharq va G'arb ijodkorlarining vatanparvarlik tarannum etilgan asarlarida, o'z navbatida, o'xshashliklar ham seziladi. Bu Fitrat asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Fitrat o'zining bir qancha dramalari, publitsistik maqolalari, ilmiy asarlari bilan jadidchilik harakatiga munosib hissasini qo'shdi. Shu kabi asarlaridan biri "Chin sevish" [Фитрат 2003, 42] dramasidir. Ushbu dramada vatanparvarlik, xalqsevarlik, ayollarga bo'lgan ehtirom va mehr-oqibat, bosqinchi, mustamlakachi tizimga bo'lgan nafrat ochiqchasiga aks ettirilishi bilan birga, millatparvarlik g'oyalarini ham ilgari surilgan. Masalan, dramadagi Nuriddinxon obrazi zamirida Fitrat o'zining millatsevarlik, xalqparvarlik g'oyalarini aks ettirgan. Fitratning "Chin sevish" dramasida Hindistonda ro'y bergen voqealar yozilgan bo'lib, asarda Hindistonni Angliya hukmronligidan qutqarish, ozodlikka erishish g'oyasi tarannum etilgan. Dramada musulmon farzandlari Nuriddinxon va Zulayhoning sevgi voqealari hindlarning mustaqillik davridagi armonlari bilan bog'liq holda ta'riflanadi. Asar qahramonlari "Erk yo o'lim!" shiori asosida birlashib, mustamlakachi bosqinchilarga qarshi chiqishni o'ylashadi, lekin ba'zi bir o'z shaxsiy manfaati yo'lida vatani, millatini sotgan "mehrobdan chiqqan chayonlar" bunga yo'l bermaydilar. Millat botirlari qalbidagi mustamlakachi davlatga bo'lgan nafrat, mustamlaka ko'lankasini yurt ustidan otish istagi naqadar kuchli ekanligini Fitrat o'ziga xos ruhda tasvirlaydi.

XX asrga kelib Sharqu G'arb muammosi keskin ma'naviy va ijtimoiy-tarixiy qarashlar maydoniga aylangan edi. Sharq mamlakatlarining G'arb imperialistlari tomonidan bosib olinishi ularning ijtimoiy-tarixiy va madaniy taraqqiyotidagi sustkashlikni jadallashtirib yubordi. Bu ishlarga qarshi ilg'or ziyolilarning, ma'rifatparvar insonlarning Sharq ozodligi va hurligi yo'lidagi harakatlari, faoliyatları kuchaya boshlagan davr edi. Shuning uchun badiiy ijodda ham siyosiy mavzudagi masalalar ko'proq ko'tarildi, Sharq va G'arb xalqlarining turmush tarzi qiyoslab solishtirila boshlandi va bunday tafovutlar sababini aniqlash tamoyili kuchaydi. Bu esa, o'z navbatida, Sharqqa milliy uyg'onish davri kelganining darakchisi edi. O'zbek yangicha ma'rifatparvarlik va jadid adabiyoti ana shu ijtimoiy-madaniy, adabiy-estetik zaminda dunyoga keldi.

Adabiyotlar

Белинский, В. Г. 1948. *Мақолалар*. Тошкент. Ўзбекистон Давлат нашриёти.
Волтер. Брут. 1783. Москва: Университетской тип.

- Жабборов, Н. 2004. *Фурқат ҳаёти ва ижодий меросининг хориждаги даври: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси*: филол. фан. д-ри.... дисс. -Тошкент.
- Jabborov, N. 2023. "Fitratning Sharq va G'arb madaniyatiga doir konseptual qarashlari". "Jadidlarning ma'rifiy faoliyati: g'oyalari, maqsadlari, vazifalari va Turkiston taraqqiyotiga qo'shgan hissasi" mavzuidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent.
- Каримов, Н. 2008. *XXаср адабиёти манзаралари*. Тошкент: Ўзбекистон.
- Каримов, Р. 2010. "Шарқ маънавияти ва олмон алломалари". Жаҳон адабиёти, 6.
- Оллворт Эдвард. 2009. "Биринчи ўзбек драмаси". *Жаҳон адабиёти* 8.
- Лермонтов, М. Ю. 1981. *Поэзия*. Ленинград: Детская литература.
- Сулаймонова, Ф. 1997. *Шарқ ва Farb*. Тошкент: Ўзбекистон.
- Фитрат. 2003. *Танланган асарлар*. З-жилд. Тошкент: Маънавият.
- Чўлпон. 2016. *Асарлар*. 4 -жилдлик. 1-жилд. Тошкент: Академнашр.
- Чўлпон. 1919. "Қизил байналминал". *Иштирокион*, 6 март.
- Чўлпон. 1991. *Яна олдим созимни*. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Хусайн Ўзбой. 1993. *Чўлпоннинг шеърлари*. Анқара: Турк маданиятини ўрганиш институти нашри.
- Куронов, Д. 2004. *Чўлпон насли поэтикаси*. Тошкент: Шарқ.
- Куронов, Д. 1997. "Жаҳон адабиётига йўл". *Жаҳон адабиёти* 6: 166-170.

The Harmony and Uniqueness of the Literature of the East-West Enlightenment

Shahlo Hojiyeva¹

Abstrakt

This article discusses the common and unique features of Eastern and Western enlightenment. Reflections are given on the ideological and ideological movement widespread in the countries of Western Europe and North America in the 17th and 18th centuries, the literature that was united and propagated with the ideas of this movement, i.e., the literature of the Enlightenment. Analyzes of how the result of changes affected literature, its importance and place today are given. The continuity of the Enlightenment movement was established by the Jadidism movement, the services of the representatives of the Jadidism movement for the

¹ Shahlo H. Hojiyeva – doctor of philosophy (PhD) in philological sciences, associate professor, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek. E-pochta sh.hojiyeva@mail.ru

ORCID ID: 0009-0004-9191-930X

For citation: Hojiyeva, Sh. X. 2024. "The Harmony and Uniqueness of the Literature of the East-West Enlightenment". *Uzbekistan: Language and Culture* 2: 120 –137.

development of literature and the development of the social system were recognized and analyzed. The analyzes presented in the article are based on the works of Cholpon's "Eastern Light", Lermontov's poem "Spor" ("Discussion"), the great German poet I. Goethe and Khoja Hafiz. After all, through Hafiz, Goethe made a lifelong love for the whole east and finished "Garbu Sharq Divan". The article also classifies the common aspects of the Enlightenment movement and the Jadidism movement that spread in Europe in the 18th century. The fact that the Enlightenmentists want to achieve the development of society not through revolutionary coups and rebellions, but through the promotion of goodness, justice, and knowledge is described in the works of the representatives of the Enlightenment and Modernist literature.

Key words: *cultural-literary environment, Eastern and Western Enlightenment, Enlightenment movement, Jadidism movement, democratic value, modern genre.*

References

- Belinskiy, V. G. 1948. *Maqolalar*. Toshkent. O'zbekiston Davlat nashriyoti.
Volter. Brut. 1783. Moskva: Universitetskoy tip.
- Jabborov, N. 2004. *Furqat hayoti va ijodiy merosining xorijdagi davri: manbalari, matniy tadqiqi, poetikasi*: filol. fan. d-ri.... diss. Toshkent.
- Jabborov, N. 2023. "Fitratning Sharq va G'arb madaniyatiga doir konseptual qarashlari". *Jadidlarning ma'rifiy faoliyati: g'oyalari, maqsadlari, vazifalari va Turkiston taraqqiyotiga qo'shgan hissasi*" mavzuidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent.
- Karimov, N. 2008. *XX asr adabiyoti manzaralari*. Toshkent: O'zbekiston.
- Karimov, R. 2010. "Sharq ma'naviyati va olmon allomalari". *Jahon adabiyoti*, 6.
- Ollvort Edvard. 2009. "Birinchi o'zbek dramasi". *Jahon adabiyoti* 8.
- Lermontov, M. Yu. 1981. *Poeziya*. Leningrad: Detskaya literatura.
- Sulaymonova, F. 1997. *Sharq va G'arb*. Toshkent: O'zbekiston.
- Fitrat. 2003. *Tanlangan asarlar*. 3-jild. Toshkent: Ma'naviyat.
- Cho'lpon. 2016. *Asarlar*. 4 -jildlik. 1-jild. Toshkent: Akademnashr.
- Cho'lpon. 1919. "Qizil baynalmin". *Ishtirokiyun*, 6 mart.
- Cho'lpon. 1991. *Yana oldim sozimni*. Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Husayn O'zboy. 1993. *Cho'lponning she'rlari*. Anqara: Turk madaniyatini o'rganish instituti nashri.
- Quronov, D. 2004. *Cho'lpon nasri poetikasi*. Toshkent: Sharq.
- Quronov, D. 1997. "Jahon adabiyotiga yo'l". *Jahon adabiyoti* 6: 166-170.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lif, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochta-siga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so'zdan kam bo'limgan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbliji, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yoqda, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimonini aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki"

shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingen tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingen manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingen ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsdasi [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar bibliografiyada o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

VII.Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

VIII.1. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*, Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya, kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq mualliflari bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismlari to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda birinchi muallif ismi yoziladi va "boshqalar" deb ko'rsatiladi.

[Familiya va boshqalar kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*.

Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[МАМАТОВ 2018, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

VIII.2. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8. Toshkent.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

VIII.3. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro’yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo’yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo’lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko’rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?” *O’zbekiston adabiyoti va san’ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. “Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi”. *UZA: O’zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so’ngida foydalanilgan adabiyotlar o’zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro’yxati ikki qismdan iborat bo’lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko’rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o’zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini “The Chicago Manual of Style, 16th Edition” qo’llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle.org/> havolasidekan ko’rib olishingiz mumkin.

GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS

Uzbekistan: language and culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any opinions and views expressed in publications are the opinions and views of the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

1. General

- Submission Guideline

1. Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s)'.

2. Manuscript format

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of *The Chicago Manual of Style*, 16th Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;

- a list of references of no more than five (5) pages;

- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: *Title of the Book*. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).

- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

- Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.
- Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.
- Level 3. Modified “down” style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.
- Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

3. Style and Usage

1) Translation

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, “Author’s own” translations of quoted texts should be noted as such.
- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.
- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.
- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.
- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([]).

2) Names and Terms

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

4. Quotation

1) Block Quotations:

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

5. Others

- 1) There is one space after sentence punctuation and not two.
- 2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.
- 3) For parentheses within parentheses, use brackets ([]).

6. Basic Citation Format

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of *The Chicago Manual of Style*.

BOOK

Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

In Text Cite:

[Pollan 2006, 99–100]

Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

In Text Cite:

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

In Text Cite:

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of University of Chicago Readings in Western Civilization, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

In Text Cite:

[Cicero 1986, 35]

BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a

chapter or other number.

Reference List (hanging indent):

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

In Text Cite:

[Austen 2007, 101]

Reference List (hanging indent):

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*. Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders>

In Text Cite:

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

JOURNAL ARTICLE

Article in a print journal

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

Reference List (hanging indent):

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439–58.

In text cite:

[Weinstein 2009, 440]

Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

Reference List (hanging indent):

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405–50. doi:10.1086/599247.

In text cite:

[Kossinets and Watts 2009, 411]

Article in a newspaper or popular magazine

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

Reference List (hanging indent):

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

In text cite:

[Mendelsohn 2010, 68]

Reference List (hanging indent):

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

In text cite:

[Stolberg and Pear 2010, 12]

WEBSITE

A citation to website content can often be limited to a mention in the text ("As of July 19, 2008, the McDonald's Corporation listed on its website . . ."). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

Bibliography (hanging indent):

Google. 2009. "Google Privacy Policy." Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

In text cite:

[Google 2009]

Reference List (hanging indent):

McDonald's Corporation. 2008. "McDonald's Happy Meal Toy Safety Facts." <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

In text cite:

[McDonald's 2008]

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan 0936-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 103-uy.

Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 30.06.2024-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasi.
Shartli b.t. 7,51. Nashr b.t. 7,62.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida
tayyorlandi va sahifalandi.

"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.